

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI		REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY EDUCATION KARSHI STATE UNIVERSITY
---	--	---

QURBONOV QO'LDOSH

MUSIQA NAZARIYASI fanidan

MA'RUZA MATNI

QARSHI

TOVUSH

TOVUSHNING FIZIK ASOSI

«Tovush» soʻzi ikki xil tushunchani bildiradi: birinchisi— fizik holatdagi tovush; ikkinchisi— sezgi holatdagi tovush.

1. Biror egiluvchan jism, masalan, cholgʻu asbobi torining tebranishi (vibratsiyasi) natijasida havoda uzunasiga taralgan toʻlqinsimon tebranishlar hosil boʻladi.

Bu xildagi tebranishlar tovush toʻlqini deb ataladi. Ular tovush manbaidan har tomonga gir aylana (sharsimon) tarqala-dilar.

2. Tovush toʻlqinlari eshitish organi tomonidan qabul qilin-gach, unga taʼsir etadi va nerv sistemasi orqali bosh miyaga oʻtib, tovush sezgisini qoʻzgʻatadi.[^]

MUZIKAVIY TOVUSHNING XUSUSIYATLARI

Biz juda koʻp xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Lekin hamma tovushlar ham muzikada qoʻllanila bermaydi. Qulogʻimiz muzikaviy tovushlar bilan shovqinli tovushlarni bir-biridan ajratadi. Shovqinli tovushlar, masalan, qarsillash, gʻijillash, dukillash, gumburlash, shivirlash va hokazolar aniq balandlikka ega emas, shuning uchun ham bu tovushlar muzikada qoʻllanil-maydi¹.

Muzikaviy tovushning uch xil fizik xususiyati bor. Ular b a-landlik, qattqlik va tembrdan iborat.

Bundan tashqari, muzikada tovushning ch oʻ z i m i ham katta. ahamiyatga egadir. Tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik xarakteri oʻzgarmaydi, lekin muzika nuqtai nazaridan tovushning choʻzimi uning (asosiy xossalaridan hisoblanadigan yana bir xususiyati boʻlib, u muhim ahamiyatga egadir. Endi muzikaviy tovushning har bir xususiyatini alohida koʻrib chiqamiz

Tovushning balandligi tebranayotgan jismning teb-ranish tezligi (chastotasi) ga bogʻliqdir. Tebranish qanchalik tez boʻlib tursa, tovush shunchalik baland boʻladi va aksincha, (tebrayish qanchalik suet boʻlsa, tovush shunchalik past boʻladi).

Tovushning qatt-iqligi tebranish harakatining kuchiga, yaʼni tovush manbai boʻlgan jismning tebranish kengligiga bogʻliqdir. Tebranish harakatlari boʻlib turadigan fazo doirasi tebran ish amplitudasi (kengligi) deb ataladi (1-rayem-ga qarang).

Tebranish amplitudasi qancha katta boʻlsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha:

Tembr deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barang-ligiga aytiladi. Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuygʻu-larga taalluqli turli iboralar qoʻllaniladi, masalan: mayin, keskin, yoʻgʻon, jarangdor, kuychan tovush deyishadi. Maʼlumki, har bir cholgʻu asbobi yoki kishi ovozi oʻziga xos tembrga egadir. Xilma-xil cholgʻu asboblarida eshitiladigan maʼlum bir baland-likdagi tovushlar oʻzlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan farq qiladilar.

Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos boʻlgan yuqori tonlarning tarkibiga (tabiiy aks sadolarga) bogʻliqdir. Yuqori tonlar (yoki brshqacha qilib aytganda, oberton-lar¹) tovush toʻlqinlarining murakkab shakli natijasida yuzaga keladi

Tovush choʻzimi tovush manbai tebranishining davom etishiga bogʻliq boʻladi. Masalan, tovush chiqa boshlaganda tovush manbai-ning tebranishi qanchalik keng boʻlsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadn. Bunda, albatta, tovush manbai (jism) erkin tebranishi shart.

YUQORI TONLAR. TABIIY TOVUSHQATOR

Tebranuvchi jism (tor) tebranayotib teng boʻlaklarga boʻlinishi natijasida, tovush toʻlqinlarining murakkab shakli vujudga keladi. Jismning umumiy tebranish protsessida bu teng boʻlakcha-lar alohida tebranib, oʻzining uzunligiga muvofiq keladigan qoʻshimcha toʻlqinlar hosil qiladi. Shunday qilib, yuqori tonlar qoʻshimcha (oddiy) tebranish natijasida hosil boʻladi. Yuqori tonlarning balandligi har xil boʻladi, chunki ularni hosil qiladigan tebranish tezligi turlichadir. Masalan, agarda cholgʻu asbobi torida birgina asosiy ton eshitilganda edi, uning toʻlqinlanish shakli quyidagʻi grafik tasvirga muvofiq bulaoli:

- Torning qoq yarmidan hosil boʻlgan ikkinchi yuqori ton toʻlqi-nining uzunligi asosiy ton toʻlqinidan ikki marta qisqa, tebranish chastotasi (tezligi) zsa ikki marta tezroq boʻladi va hokazo (3-rasmga qarang).

Torning dastlabki tovushi (asosiy toni) ning tebranish sonini birlik sifatida olsak, yuqori tonlarning tebranish sonlarini quyidagi oddiy raqamlarda ifoda qilish mumkin:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 va..hokazo.

Shu tartibdagi tovushlar qatori tabiiy tovush qator deyiladi.

Katta oktava *do* tovushini asosiy ton sifatida qabul qilsak, tovushlarning quyidagi qatoriga ega boʻlamiz:

MUSIQAVIY SISTEMA. TOVUSHQATOR. ASOSIY POGʻONALAR VA ULARNING NOMLARI OKTAVALAR

Hozirgi zamon muzika amaliyotiga asos" qilib olingan muzika-viy sistemna oʻzaro muayyan balandlikda munosabatda boʻlgan tovushlar qatoridan iboratdir. Sistema tovushlarining oʻz ba-landligiga qarab joylashishi tovushqator, tovush |sa, uning pogʻonasi deyiladi. Muzikaviy sistemaning toʻliq toyaushqatori •88 ta xilma-xil tozushlarni oʻz ichiga oladi. Barcha r-ovushlar (yaʼni eng past tovushlardan eng bgland toʻvushlargacha) sekundiga 16 dan 4176 tebranishga egadir. Ana shu tovushlar balandligi odamlar qulogʻi eshita oladigan tovushlaodi.

Muzikaviy sistema tovushqatorining asosiy pogʻonalariga yettita mustaqil nom berilgan:

Do, re, mi, fa, sol, lya, si., do, re, mi, fa, sol, la, si Bu asosiy pogʻonalar fortepyanoning oq klavishlari tovushla-riga moye keladi:

Tovushqatordagi yettita asosiy pogʻonaning nomi maʼlum bir vaqtda takrorlanib turadi va shunday yoʻl bilan barcha asosiy pogʻonalarning tovushlarini oʻz ichida qamrab oladi.

Bu — yuqori tomon sanalgan (oq klavishlarda chiqariladigan) har bir sakkizinchi tovush birinchi tovushga nisbatan ikki marta tezroq tebranishi

natijasida hosil bo‘ladi. Demak, u birinchi boshlang‘ich tovushning ikkinchi yuqori toniga moye keladi va u unga batamom hamohang bo‘lib eshutiladi.

Bir xil pog‘ona (nom) dagi tovushlar oraliq‘iga oktava deyiladi. Bundan tashqari, tovushqatorning asosiy yetti pog‘onasi-ni o‘z ichiga olgan har bir qismi ham oktava deb ataladi. Shunday qilib, butun tovushqator bir necha oktavaga bo‘linadi. Har bir oktavaning boshlanishi *do* pog‘onasinnng tovushi deb qabul qilin-gan. Butun tovushqator yettita to‘liq oktava va tovushqatorning ikki tomoni (fortepiano klaviaturasining ikki cheti) da joyla-shib, to‘liq bo‘lmagan nkki oktavani tashkil etuvchi to‘rtta tovush-dan iborat/ Oktavalar (pastdan yuqoriga tomon) quyidagicha ataladilar: su b kontroktav a, kontroktava, katta oktava, knchik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, u ch i i ch p oktava, to‘rtinchi oktava va b ye sh i n ch n o k t a v a. u

Quyida okt;shalarga bo‘lingan klaviatura shaklida muzikaviy sistema tovushqatoriping sxemasi ko‘rsatilgan:

MUZIKAVIY SOZ. TEMPERATSIYALANGAN SOZ. YARIM TON VA BUTUN TON. HOSILA POG‘ONALAR VA ULARNING NOMLARI

Muzikaviy sistemadagi tovushlar absolyut balandliginish (aniq sozlangan taqdirda) o‘zaro bog‘lanishi muzikaviy soz deyiladi.

Hozirgi zamon muzikaviy soziga birinchi oktavadagi *lya* tovushning bir sekunda 440 marta tebranishi asos qilib olingan.

Qamma joyda qabul qilingan muzikaviy sistemaning har bir oktavasi o‘n ikkita teng qiyemga—ya rim tonlarga bo‘linadi. Bu xildagi muzikaviy sozni tempe<ratsiyalangan soz deyiladi. U, oktavadagi barcha yarim tonlarning teng bo‘lishi bilan tabiiy tovushqator (soz)dan farq qiladi.

Har bir oktavaning 12 ta teng yarim tonlikka bo‘linganligi sababli, yarim ton muzika sistemasitovushlari orasidagi eng ki-chik oraliq hisoblanady. Ikkita yarim tonlikdan hosil bo‘lgan oraliqqa butun ton deyiladi.

Tovushqatorning asosiy pog‘onalari orasida ikkita yarim ton va beshta butun ton bor. Ular quyidagi tartibda joylashgan:

do re mi fa sol lya si. do 1 ton 1 ton 1/2 ton 1 ton 1 ton 1 ton 1/2 ton

Asosiy pog‘onalar orasida hosil bo‘lgan butun tonlar yarim tonlarga bo‘linadi. Fortepyanoning qora klavishlarini bosganda eshutilgan tovushlar bir tonliklarni yarim tonliklarga bo‘ladi. Shunday qilib, har bir oktava bir-byridan teng oraliqda joylashgan o‘n ikkita tovushdan tarkib topadi.

Tovushqatorning har bir asosiy pog‘onasini ko‘tarish yoki pasaytirish mumkin. Ko‘tarilgan va pasaytirilgan pog‘onalarga moye tovushlar *h o s i l a* pog‘onalar hisoblanadi. Shuning uchun hosila pog‘onalarning nomi asosiy pog‘onalar nomidan kelib chiqadi.

Asosiy pog‘ona yarim tonga ko‘tarilganda — *diyez* so‘zi, yarim tonga pasaytirilganda *bemol* so‘zi qo‘llaniladi. Ikkita yarim tonga ko‘tarilea *dubl-diyez*, masalan *fa-dubl-diyez* deb ikkita yarim tonga pasaytirilsa — *dubl-bemol*, masalan, *si-dubl-bemol* deb yuritiladi.

Asosiy pog‘onalarning yuqorida ko‘rsatilgan tartibda ko‘tari-lishn va pasayishiga *alteratsiya*¹ deyiladi.

TOVUSHLAR ENGARMONIZMI

Yuqorida oktavadagi barcha yarim tonlarning teng ekanligi haqida ran borgam edi. Shu sababdan har bir tovush o'zidan yarim ton pastda joylashgan asosiy iog'onaning ko'tarilishi yoki o'zidan yarim ton yuqori joylashgan asosiy pog'onaning pasaytirilishi natijasida hosila toyoush bo'lishi mumkin, masalan, *fa-diyez* va *si-be mo l*.

Balandligi bir xil, lekin nomi va yozilishi har xil bo'lgan pog'onalar tengligiga tovushlar engarmonizmi deyiladi.

Hosila pog'ona asosiy pog'ona bilan bir xil balandlikda ham-bo'lishi mumkin, masalan, *si-diyez* bilan *do* yoki *fa-bemol* bilan *mi*. Tovush ikki baravar ko'tarilganda (asosiy pog'ona ikki yarim tonga ko'tariladn) yoki ikki baravar pasaytirilganda ham shu holni ko'ramiz. Masalan, *fa-dubl-diyez* bilan *sol*; *mi-dubl-diyez* bilan *fa-diyez*; *mi dubl-bemol* bilan *re*; *do-dubl-bemol* bilan *si-bemol* va hokazo.

DIATONIK VA XROMATIK YARIM TONLAR VA* BUTUN TONLAR

Yukrriida yarim ton va butun ton nima ekanligi ta'riflangan edi. Endi diatonik va xromatik yarim tonlar hamda butun tonlar bir-biridan nima bilan farq qilishini aviqlash kerak.

Tovushqatorning yonma-yon joylashgan ikki pog'onasi orasida hosil bo'lgan **yarim** tonga diatonik yarim ton deyiladi^, Yuqorida aytilgandek, tovushqa-torning asosiy pog'onalari *mi-fa* va *si-do* yarim tonlarini hosil qiladi.

Ko'rsatilgan yarim tonlardan tashqari, asosiy tonlar bilan yonma-yon joylashgan, ko'tarilgan yoki pasaygan hosila pog'onalar orasida ham diatonik yarim tonlap xog.il bulipgi MVMKHH

Bundan tashqari diatonik tonlar asosiy pog'ona bilan hosila pog'ona orasida, shuningdek, ikkita hosila pog'ona orasida ham paydo bo'lishi mumkin.

N/Xromatik butun tonlar deb quyidagicha paydo bo'lgan tonlarga aytiladi: v

a) Asosiy pog'ona bilan uning ikki baravar ko'tarilishi yoki pasayishi orasida hosil bo'lsa

TOVUSHLARNING HARFIY SISTEMA BUYICHA YOZILISHI

Muzika amaliyotida tovushlarni bo'g'in bilan yozishdan tashqari, latin alfavita asosida harf bilan yozish usuli ham so'llani-ladi.

Yetti asosiy pog'ona quyidagicha belgilanadi:

S, D, YE, G', G, A, N

do, re, shi, fa, sol, lya, si

Bu sistema vujudga kelgan davrda, ya'ni o'rta asrlarda tovushkator *lya to-vushi* bilan boshlanardi, *si* — *bemol* tovushi esa tovushqatorning asosiy pog'onasi hisoblanardi. Keyinchalik *si* — *bemol* tovushi *si* tovushi bilan almash-tirildi. Usha davrda tovushqator quyidagicha bo'lgan:

A, V, S, D, YE, . G', G

lya, si-bemol, do, re, mi, fa, sol

NOTA YOZUVI

NOTA. NOTA CHUZIMI VA UNING BELGILANISHI (YOZILISH SHAKLI) NOTA YO'LI

Nota yozuvi deb tarixan yuzaga kelgan maxsus belgi — nota-lar¹ vositasida tovushlarni yozish sistemasiga aytiladi.

Nota belgisi o'rtasi bo'sh yoki bo'yalgan doirachalardan iborat bo'ladi.

Tovushlarning xilma-xil cho'zimini belgilar bilan ko'rsatish uchun bu doirachalarga vertikal tayoqchalar (shtillar), dumchalar.

qisqa cho'zimli tovushlarni bir gruppaga birlashtirish uchun esa qovurg'achalar—qo'shimcha gorizontal chiziqchalar qo'shib yoziladi (keyingi betdagi jadvalga qarang).-

Tovushlarning balandligini aniqlash uchun notalar beshta pa-rallel chiziqdan iborat nrtta yo'liga joylashtiriladi. Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yo'lining boshlanish qis-mida besh chiziqni birlashtiruvchi vertikal chiziq qo'yiladi. Bu chiziq boshlang'ich chiziq deb ataladi:

Notalar nota yo'lidagi chiziqlar ustiga va chiziqlar oralig'iga yoziladi.

Nota yozuvida asosiy chiziqlardan tashqari, ayrim notalar uchun qisqa qo'shimcha chiziqlar ham ishlatiladi. Ular nota yo'lining ostsha na ustiga yoziladi.

Nota yo'lining yuqorisida joylashgan qo'shimcha chiziqlar bi rinchisidan boshlab yuqoriga tomon, nota yo'lidan pastda joylashgan qo'shimcha chiziqlar birinchisidan boshlab pastga tomon sana-ladi.

Tayoqchalar (shtillar) nota yo'lidagi nota doirachalariga tutash yoziladi: nota doirachasi ikkinchi va uchinchi chiziqlar orasida va undan pastroqda joylashgan bo'lsa, tayoqchalar yuqoriga qarab o'ng tomonga yoziladi, nota doirachasi uchinchi va undan yuqori chiziqlar-da joylashgan bo'lsa, pastga qarab chap tomonga qo'yiladi.

Notalar gruppalariga birlashtirilganda bunday yoziladi:

Notalar gruppalariga birlashtirilganda (agar ular xilma-xil balandlikda joylashgan bo'lsalar) tayoqcha va qovurg'achalarni yozish uchun qulay o'rin tanlanadi. Bunda ularni nota yo'lining o'rta qismiga yozishga harakat qilish kerak.

KALITLAR

Nota yo'lidagi chiziqlar ustiga va oralig'iga tovushlarning **muayyan** balandligi maxsus belgi bilan biriktiriladi va bunga kalit deyiladi.

Kalit nota yo'lining boshida asosiy chiziqlarning biriga qo'yiladi. Bunda biror asosiy chiziq kalit markazini kesib o'tishi lozim.

Kalit ana shu chiziqda joylashgan notaga muayyan tovush (pogona) balandligini (nomini) belgilaydi, nota yo'lidagi qolgan tovushlar joylanishi mana shu notaga moslanadi.

Hozirgi vaqtda uchta xilma-xil kalit qo'llanilmoqda.

Skripka kalitn (*sol* kaliti):

U ikkin-chi chiziqda birinchi oktavaning *sol* tovushi balandligini belgilaydi.

Bas kaliti (*fa* kaliti):

To'rtinchi chiziqda kichik oktavaning *fa* tovushi balandligini belgilaydi. *Do* kaliti ikki xil bo'ladi: *alt* va *tenor* kalitlari:

Alt kaliti uchinchi chiziqda birinchi oktavaning *do* tovushi balandligini, tenor kaliti esa xuddi shu tovush balandligini to'rtinchi chiziqda belgilaydi.

Alt kaliti alt va trombon asboblari uchun qo'llaniladi.

Tenor kaliti violonchel, fagot va trombon uchun qo'llaniladi-

Oldingi vaqtlarda *do* kaligining boshqa turlari ham ishlatilgan. U birinchi chiziq ustiga qo'yilganda soprano kaliti, ikkinchi chiziqda — *metso* — soprano kaliti va beshinchi chiziqda — bariton kaliti deb atalardi. Bu xildagi kalitlar asosan vokal muzikasida qo'llanilgan va shuning uchun ularning nomi odam ovozi diapazoniga¹ moye keyadi.

Qo'shimcha chiziqlarni haddan tashqari ko'p qo'llamaslik uchun nota yozuvida xilma-xil kalit belgilaridan foydalaniladi. Bu esa nota yozuvining o'qilishini ancha osonlashtiradi. 11- §. ALTERATSIYA BELGILARI

Yuqorida, 5- § da asosiy pog'onalarning ko'tarilishi yok» pasaytirilishi alteratsiya deb ataladi deyilgan edi. Alteratsiya belgilari beshta bo'ladi: diyez, dubl-diyez, bemol, dubl-bemol va bekar (man qilish). Ular quyidagicha yoziladi:

diyez

dubl-diyez

bemol

dubl-bemol

bekar

Alteratsiya belgilari nota chiziqlariga va oralig'iga yozilib, lozim bo'lganda, notalar oldiga, shuningdek, kalitlarning o'ng tomoniga ham qo'yiladi.

Kalitdan keyin qo'yilgan alteratsiya belgilari kalit alteratsiya belgisi, notalar oldidan qo'yiladigan belgi esa tasodifiy alteratsiya belgisi deyiladi:

Kalit alteratsiya belgilari o'z kuchini butun asar davomida va barcha oktavalarda saqlaydi. Tasodifiy alteratsiya belgisi esa o'z kuchini faqatgina bir takt davomida va o'z oldida turgan tovush uchungina saqlaydi, xolos.

NOTALARGA QO'YILADIGAN TOVUSHLAR CHO'ZIMINI UZAYTIRUVCHI QO'SHIMCHA BELGILAR

Tovushning asosiy cho'-zimlarid;sh tashqari, nota yozuvida cho'zimlarni uzaytiruvchi qo'-shimcha bolgnlyar ham qo'llaniladi.

Bularga quyidagilar kiradi:

a) Nuqta — biror tovush cho'zimini yarim baravar uzaytira-di, bu bolgi nota doirachasining o'ng tomonidan qo'yiladi:

b) I k k i nuqta — biror tovush cho'zimini yarim baravar va uning asosiy cho'zimidan yana chorak baravar uzaytiradi:

v) Liga — yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi nota cho'-zimlarini birlashtiruvchi egri chiziq:

g) Fermata — tovush cho'ziminipg paqt bilan cheklanmagan uzayishini ko'rsatuvchi belgi. Fermata o'rtasiga nuqta qo'yilgav kichik yarim doyra shaklida yoziladi:

Fermata nota ustiga yoki osti ga qo'yiladi:

PAUZALAR

Tovush yangrashining vaqtincha to'xtalishi pauza deyiladi. Tovush cho'zimalari qanday o'lchansa, pauzalar davomiyligi ham shunday o'lchanadi.

Butun nota cho'zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi —

Yarimtalik nota — cho'zimiga teng keladigan yaauzaning yozilishi —

Choraktalik nota cho'zimiga teng keladigan yaauzaning yozilishi —

Nimchorak nota cho'zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi —

Un oltitalik nota cho'zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi —

Uttiz ikkitalik nota cho'zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi —

Oltmish to'rttalik nota cho'zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi —

RITM VA METR

RITM. CHO'ZIMLARNING ASOSIY VA ERKIN RAVISHDA BULINISHI

O'zaro bog'lanib, izchil kelgan tovushlarcho'zi-m i ritm d e y e y i l a d i.

Muzikada tovushlar cho'zimining ketma-ket kelishi natijasida ularniig ma'lum vaqt ichida almashinib turishini ko'ramiz. To-vushlarniig muayyan tartibda bog'langan cho'zimlari birlashib, ritmik turkumlar (usullar) hosil qiladi. Muzika asarining umumiy ritmi ana shu ritmik turkumning yig'indisidan tarkib topadi. Masalan:

Muzikada quyidagi cho'zimlar qo'llaniladi: 1) asosiy (juft bo'linadigan) cho'zimlar, bular haqida ikkinchi bobda aytilgan edi, ular — butun, yarimtalik, choraklik, nimchoraklik va h. k 2) asosiy cho'zimlarni istalgan teng qismlarga erkin (shartli) bo'lish natijasida hosil bulgan cho'zimlar.

MUZIKAVIY AKSENT (ZARB) METR, ULCHOV, TAKT. TAKT CHIZIG'I. TAKTOLDI

Muzikada tovushlar ma'lum bir vaqt davomida tashkil etilgan (eshiriladi). Tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda tenghissalarga bo'linib, almashib turishi muzikada bir tekis harakat hosil qiladi (bunday harakatga pulsatsiya ham deyiladi). Tovushlarning ana shu harakati vaqtida ayrim hissalar urg'usi ajralib turadi. Bu urg'ularga *aksent* (zarb) deyiladi.

Aksent tushadigan hissalar kuchli hissalar, aksent tushmaydigan hissalar esa kuchsiz hissalar deyiladi.

Kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashib turishi metr deyiladi.

Metr hissasi xilma-xil cho'zimlarda ifodalanishi mumkin. Metr hissasining ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi — o'lchov deyiladi.

Ulchovlar nota yozuvida ikkita raqam bilan yoziladi. Bu ra-qamlar birin-ketin yuqoridan pastga qo'yilgan bo'lib, kalit yoni-da alteratsiya belgilaridan so'ng joylashtiriladi.

Ustki raqam metrdagi hissalar sonini, quyi raqam esa mazkur o'lchovdagi metr hissasining qanday cho'zimda ifodalanganligi bildiradi. Muzika asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo'lgan oralig'i takt deyiladi.

Pota yozuvida har bir takt nota yo'lini qo'ndalang kesib o'tgan isrtikal chiziq bilan ajratiladi. Bu vertikal chiziq takt chizig'i deyiladi. Takt chizig'i, odatda, takt oldidan kuchli hissani ajratib ko'rsatish uchun qo'yiladi.

Lgar muzika asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to'liq bo'lmagan takt hosil bo'lib, bunga taktoldi deyiladi. Taktoldi ko'pchilik hollarda umumiy taktning yarmidan oshmaydi.

Taktoldi muzika asari o'rtasida, uning istalgan bir qismi Ooshlanishi oldida ham bo'lishi mumkin.

Lsar oxirida yoki uning biror qismidan so'ng ikkita takt chizigi qo'yiladi.

Ko'i hollarda taktoldi bilan boshlangan asar yoki uning biror qismi to'liq bo'lmagan takt bilan tugallanadi va u taktoldini to'ldiradi.

ODDIY METRLAR VA O'LCHOVLAR. ODDIY O'LCHOVLI TAKTLARDAGI CHO'ZIMLARNING TURKUSHLANISHI

Aksentlari (kuchli hissalar) har bir hissadan keyin bir te-kisda takrorlanib turadigan metrlar ikki hissali metrlar deb ataladi.

Aksentlari har ikki hissadan keyin takrorlanib turadigan metrlar uch hissali metrlar deb ataladi. Ularning o'lchovlari ham shu xilda bo'lsa, oddiy o'lchoqlar deyiladi. Oddiy o'lchoqlarga quyidagilar kiradi:

va) Ikki hissali o'lchoqlar o'lchoq Allabreve deb ham yuritiladi va boshqacha belgi bilan ham ko'rsatiladi:

(26-misolga qaralsin). u-N) Uch hissali o'lchoqlar o'lchovi nisbatan kam uchraydi.

Bir takt ichida ritmlar turkumlansa, u cho'zimlar turkumlanishi deyiladi.

Oddiy o'lchoqlardagi cho'zimlar turkumlanganda, taktning aso-siy hissalar (metr hissasi) bir-biridan ajratiladi.

Masalan:

Oddiy o'lchoqlardagi cho'zimlar turkumlanishi tartibida quyi-dagi istisnolarga yo'l qo'yiladi:

1) bir xil bo'lgan barcha cho'zimlar umumiy chiziq (qovurg'acha) ostiga birlashtiriladi. Masalan

Taktning nihoyat kichik hissali o'lchovida quyidagicha tur-kumlanishga yo'l qo'yiladi:

va hokazo.

2) cho'zimi butun bir taktni egallagan tovush ligasiz, bir nota bilan yoziladi;

3) agar nota metr hissasini boshlab beradigan .nota bo'lsa, uning yoniga nuqta qo'yiladi.

ARALASH METRLAR VA O'LCHOVLAR. ARALASH O'LCHOVLI TAKTLARDA CHUZIMLARNING TURKUMLANISHI

19- paragrafda lptilganidsk, oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab mstrlar hosil bo'ladi. Ikki yoki bir necha har xil k o' r i n i s h l y a g i oddiy metrlar birlashuvi natijasida murakkab aralash metrlar hosil bo'ladi. Bu xidagi metrlarni

soddaroq qilib, aralash metrlar deb, ularni ifodalovchi o'lovlarlarni esa aralash o'lovlar deb ham ataydilar.

Muzikada aralash o'lovlar oddiy va murakkab o'lovlarlarga qaraganda ancha kam uchraydi.

Bular orasida besh hissali va yetti hissali o'lov ko'proq qo'llaniladi:

Ba'zida aralash o'lovlarlarning boshqa xillari ham uchrayishi mumkin, masalan:

Aralash o'lovlar murakkab o'lovlardan ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) aralash o'lovlarlarning tuzilishi ularni hosil qiladigan oddiy o'lovlarlarning ketma-ket kelishiga bog'liqdir, bu esa kuchli va nisbatan kuchli hissalarlarning almashinib turishiga ham ta'sir etadi;

2) taktning kuchli va nisbatan kuchli hissalarlarning almashinib turishi tekis bormaydi.

Masalan:

a) Besh hissali o'lovlar:

Yuqoridagi birinchi misolda aksent taktning birinchi va uchinchi hissalariga, ikkinchi misolda esa taktning birinchi va to'rtinchi hissalariga to'g'ri keladi.

b) Yetti hissali o'lovlar:

Bunda birinchi misolda aksent taktning birinchi, to'rtinchi va oltinchi hissalariga, ikkinchi misolda esa taktning birinchi,

uchinchi va beshinchi hissalariga to'g'ri kelmoqda. xildagi takt tuzilishi muzikada deyarli uchramaydi.

SINKOPA

Ritm va metr aksentlarining bir-biriga to'g'ri kelmay k. o'lib, ritmdagi izchillik buzilishiga sinkopa deyiladi.

Sinkopa muzikada nihoyatda ko'p uchraydi. U metrning kuchsiz hissasiidagi tovushning navbatdagi kuchli hissasiida ham eshitilishidan hosil bo'ladi. Buning natijasida zarb metrning mana shu kuchsiz hissasiiga o'tadi. Metrning biror hissasiida kuchsiz davrga to'g'ri kelgan tovush bundan keyingi kuchli davrga to'g'ri kelganda ham o'z kuchini saqlaydich/(86-, 89-misollarga qarang).

VOKAL MUZIKASIDA TURKUMLANISH

Ovoz bilan so'zga mo'ljallangan muzikada cho'zimlar turkumlanishi nutqning bo'g'in sostaviga bog'liq bo'ladi. Bir bo'g'inga to'g'ri keladigan ayrim cho'zimlar qo'shni cho'zimlar bilan turkum bo'lib birlashmaydi. Agar bir bo'g'inga bir necha tovush to'g'ri kel-sa,-bu tovushlar cho'zimi turkumlarga umumiy qoida bo'yicha bir-lashtiriladi.

TEMP

Harakat tezligi temp (sur'at) deyiladi. Temp muzikada ifoda vositalaridan biri bo'lib, muzika asari mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir.

Templar uchta asosiy gruppaga bo'linadi: vazmin, o'rtacha va tez. Templarni aniqlashda asosan italyancha iboralar qo'llaniladi. Keyingi yillarda, sovet

kompozitorlari asarlarida va sovet nota nashrlarida rus iboralari ham qoʻllanila boshlandi. Quyida templarning asosiy nomlari keltiriladi. Vazmin templar:

Largo — keng

Lento — choʻzib

Adagio — ogʻir

Crave — juda ogʻir

Urtacha **templar:**

Andante — osoyishta, oshiqmasdan Andantino — andantedan sal tezlatib

Moderate — oʻrtacha **Sostenuto** — salobatlya **Allegretto** — jonlanib **Allegro moderato** — oʻrtacha tez

Tez templar:

Allergo — tez

vivo — jonliroq vivace — jadal Presto — tez oshiqib Prestissimo — juda tez

Asosiy templardan chetlashilganda harakat yoʻnalmasini aniqlovchi ayrim qoʻshimcha iboralardan ham foydalaniladi:

molto — juda assai — nihoyat con moto — harakat bilan comodo — erkin pop troppo — unchalik tez emas pop tanto — u qadar sekin emas sempre — doimo meno mosso — kamroq harakat bilan piu mosso — koʻproq harakat bilan

Muzika asarlari ijrosi yanada taʼsirchan va ifodali boʻlishi uchun umumiy harakatni sekin-asta tezlatish va susaytirish belgilari qoʻllaniladi. Bular nota tekstida quyidagi soʻzlar bilan yoziladi:

a) Susaytirish uchun:

ritenuto — saklanibroq ritardando — kechikibroq allargando — kengaytirib rallentando — sekinlatib

b) Tezlatish uchun:

accelerando — yanada tezlatib aniuando — ruhlantirib stringendo — jadalroq stretto — ixchamlashtirib

Harakatni dastlabki tempiga qaytarish uchun quyidagi iboralar qoʻllaniladi:

a tempo — oʻz tempida tempo primo — dastlabki surʼatda

tempo 1—dastlabki surʼatda l'istesso tempo — oʻsha surʼatda

Muzikada qoʻllaniladigan barcha templarning nomi taxminiyl yoki shartlidir.

Templarni yanada aniqroq bilib olish uchun metronom degan asbobdan foydalaniladi. Melsel xitiro qilgan metronom

keng qoʻllaniladigan metronomlardan hisoblanadi. Agar tekstda tempning metronom bilan aniqlanishini koʻrsatmoqchi boʻlsak, M. M., yaʼni «Melsel metronomi» soʻzining qisqargan ishorasi yoziladi.

Metronom mayatnik yordami bilan bir minutda talab qilingan zarblarni sanaydi. Uning tezligi koʻchma posangi yordami bilan toʻgʻrilanib turadi. Metronom mayatnigi burab yurgiziladi. Mayatnikning har bir urishi metrning bir butun, choraklik, nimchoraklik va shu kabi choʻzimlarning hissalari davriga teng boʻladi.

Kompozitor oʻz asarida oldin soʻz iborasini, soʻngra esa metronom koʻrsatgan temp belgisini yozadi.

Ijrochi tomonidan avtor ko'rsatgan tempning birmuncha o'zgar-tirilishi har bir ijrochining shaxsiy badiiy didiga bog'liqdir. Odatda tempni birmuncha o'zgartirish ijroning badiiy tomoniga ta'sir qilmaydi. Chunki ijrochilik mahorati muzikaviy obrazni ochib berishga qaratilgan bo'ladi.

DIRIJYORLIK QOIDALARI


V Xor, orkestr yoki biror boshqa yirik ansambl uchun yozilgan muzika asari ijrochiligini boshqarish, keng ma'noda, dirijyor-lik deb tushuniladi.

Qo'shiq aytilganda yoki solfedjioda dirijyorlik deb quyida-gilar nazarda tutiladi: birinchidan, hisoblab turish, ya'ni takt hissalarini almashuvi va ularning cho'zim vaqtini ko'rsatib turish, ikkinchidan, mazkur asar tempini aniqlash.


Dirijyorlik qoidalari ikki, uch va to'rt hissali qo'l harakat-lariga asoslanadi.

Bular quyidagilardan iborat (sxemalar o'ng qo'l harakati uchun ko'rsatilgan): Va) Barcha ikki hissali oddiy o'lchovlar ikki siltov bilan pastga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi:


v b) Barcha uch hissali oddiy o'lchovlar uch siltov bilan—pastga, o'ngga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi:



To'rt hissali o'lchovlar to'rt siltov bilan — pastga, chapga, o'ngga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi:




g) Olti hissali o'lchovlar olti siltov bilan dirijyorlik qilinadi. Bu to'rt hissali siltov qoidasiga asoslangan bo'lib, past-ga va o'ngga tomon siltovlar ikki marta qaytariladi:



Temp tez kelganda o'lchovlari har bir siltovga uchta-dan hissa to'g'ri keladigan oddiy ikki hissali o'lchovlardek diri-jyorlik qilinadi:


D) To'qqiz hissali o'lchovlar to'qqiz siltov bilan dirijyorlik qilinadi.

Bu uch hissali siltov qoidasiga asoslangan bo'lib, uch marta qaytariladi:



Temp tez kelganda to'qqiz hissali o'lchovlar har bir siltovga uchta-dan hissa to'g'ri keladigan oddiy uch hissali o'lchovlardek di-rizyorlik qilinadi.

ye) Un ikki hissali o'lchovlar o'n ikki siltov bilan dirijyorlik qilinadi. Bu to'rt hissali siltov qoidasiga asoslangan bo'-lib, har bir siltov oddiy taktga to'g'ri keladi va uch marta qaytariladi:



INTERVALLAR . INTERVAL

Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi interval deyiladi.

Birin-ketin eshitilgan tovushlar intervali melodii interval hosil qiladi.

Baravariga (bir vaqtda) eshitilgan tovushlar garmonik interval hosil qiladi.

Intervalning pastki tovushi interval asosi, yuqori tovushi esa interval cho‘qqisi deyiladi. Masalan:

Intervallarning melodik harakatlari vaqtida ko‘tariluvchi va pastlashuvchi intervallar hosil bo‘ladi.

Masalan:

Barcha garmonik intervallar va kutariluvchi uning yo‘nalishi h-am ko‘rsatiladi.

INTERVALLARNING SON VA SIFAT MIQDORI. ODDIY INTERVALLAR. DIATONIK INTERVALLAR

Har bir interval ikki miqdor— son va sifat miqdori bilan aniqlanadi.

Miqdori pog‘onalar soni bilan ifodalangan intervallar son miqdorli intervallar deyiladi.

Miqdori ton va yarim tonlar soni bilan ifodalangan intervallar sifat intervallari deyiladi.

Bir oktava oralig‘ida hosil bo‘lgan interval oddiy interval deyiladi. Hammasi bo‘lib sakkizta oddiy interval bor. Ularning nomi shu intervallar hisobiga kiradigan pog‘onalar soniga bog‘liqdir. Intervallar latin tilida tartibli sonlar bilan nomlanadi. Tartibli sonlar interval yuqori tovushining pastki tovushga nisbatan nechanchi pog‘onada turganligini bildiradi. Bundan tashqari intervallarni qisqa qilib yozish uchun raqam bilan ham belgilanadi.

Quyida barcha oddiy intervallarning nomi va ularning *do* tovushidan pastga va yuqoriga qarab tuzilish tartibi ko‘rsatilgan: *h Prima*— 1, birinchi (bir xildagi ikki tovushning unison bo‘lib eshitilishi)

5-paragrafda yonma-yon turgan tovushlar oralig‘ining yarim ton yoki butun tonga teng kelishi aytib o‘tilgan zdi. Demak, sekunda intervali ham yarim tondan va butun tondan tuzilishi mumkin ekan.

Masalan, *mi* — *fa* tovushlaridan iborat sekunda intervali yarim tonga teng bo‘ladi (*mi* — *fa*^{1/2} tonga). *Fa*— *sol* tovushlaridan iborat sekunda intervali butun tonga teng bo‘ladi (*fasol* = 1 tonga).

Xuddn shu singari bir turdagi boshqa intervallar tonlari-ning soni ham bir xilda emas.

Masalan, *do*—*mi* tersiya intervaliga kiradi, lekin u ikki

tonga teng (*do*—*mi* = 2 tonga), *re*—*fa* ham tersiya intervaliga ki-rib, bir yarim tonga teng (*re*—*fa* tonga).

Yuqorida keltirilgai misollardan, intervallarning sifat miqdori bir turdagi intervallarning xilma-xil bo‘lib eshitili-shichi belgilar ekan degan xulosaga kelish mumkin.

Intervalning sifat miqdorini belgilash uchun: kichik, katta, sof, orttirilgan, kamaytirilgan degan so‘zlar ishlatiladi.

Tovushqatorning asosiy pog‘onalari orasida (bir oktava oralig‘ida) quyidagi intervallar hosil bo‘ladi: 1. Sof primalar = 0 tonga

2. Kichik sekundalar = 1/2 tonga

3. Katta sekundalar = 1 tonga

4. Kichik tersiyalar = 1,5 tonga 5. Katta tersiyalar = 2 tonga 6. Sof kvartalar = 2,5 tonga

-7. Orttirilgan kvarta = 3 tonga 8. Kamaytirilgan kvinta = 3 tonga -9. Sof kvintalar = 3,5 tonga

10. Kichik sekstalar = 4 tonga

11. Katta sekstalar = 4,5 tonga

12. Kichik septimalar = 5 tonga

13. Katta septimalar ~ 5,5

14. Sof oktavalar = 6 tonga

Yuqorida ko'rsatilgan barcha intervallar asosiy intervallar deb ataladi. Bu intervallar tabiiy major va tabiiy minor-shtag pog'onalari orasida hosil bo'lganligi uchun (5- bobga qarang) diatonik intervallar ham deyiladi.

Barcha diatonik intervallarni istalgan asosiy pog'ona yoki hosila pog'onadan pastga hamda yuqoriga tomon tuzish mumkin.

Masalan: Diatonik intervallar quyining asosi hisoblanadi. Xilma-xil ko'rinishdagi melodik intervallarning uyg'unlashuvi natijasida kuy harakatining ifoda kuchi rang-barang bo'ladi. Masalan:

ORTTIRILGAN VA KAMAITIRILGAN (XROMATIK)

INTERVALLAR. INTERVALLARNING ENGARMONIK TENGLIGI

Har bir diatonik interval orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunga diatonik intervalga kiradigan pog'onalardan bi-rini xromatik prim tonga pasaytirish yoki ko'tarish yordami bilan erishiladi. Shuni ham aytish kerakki, orttirilgan intervallar sof va katta intervallardan, kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervallardan tuzilishi mumkin. Faqat sof prima bundan istisno bo'lib, kamaytirilmaydi.

Barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar xromatik deb ataladi.

Uch tondan iborat orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallarni (bular diatonik intervallar bo'lganligi uchun) xromatik intervallar qatoriga qo'shish mumkin emas.

Misollar:

Orttirilgan intervallar: ¹ a) eng yuqori pogona (cho'qqisi)ning ko'tarilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar;

b) pastki pogona (asosi) ning pasaytirilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar:

Kamaytirilgan intervallar:

a) yuqori pogona (cho'qqisi) ning pasaytirilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar:

Yuqorida ko'rsatilgan har bir xromatik interval tonining soni diatonik (asosiy) intervallardan birortasining soniga teng keladi.

Masalan: ort. 2=kich. 3 ga ($1\frac{1}{9}$ tonga):

kamaytirilgan 7 = katta 6 ga ($4\frac{1}{2}$ tonga):

Son miqdori turlicha va eshutilishi bir xilda bo'lgan intervallar engarmonik teng intervallar deyiladi.

Engarmonik teng intervallar orasida son miqdori bir xil bo'lgan intervallar ham uchraydi, bunday hollarda, taqqoslangan intervallardan birortasining ikkala tovushi engarmonik tovush-lar bilan almashtiriladi:

Yuqorida aytilgan xromatin intervallardan tashqari, biror intervalni ikkita xromatik yarim tonga orttirish natijasida ikki marta orttirish va pasaytirish natijasida ikki marta kamaytirilgan intervallar hosil bo'lishi mumkin.

Ikki marta orttirilgan kvarta va ikki marta kamaytirilgan kvinta boshqa intervallarga qaraganda ko'p uchraydi.

INTERVALLARNING AYLANISHI

Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashadi. Bunga interval aylanishi deyiladi. Tovushlarning ko'chishi ikki yo'l bilan bo'lishi mumkin:

1. Interval asosini (pastki tovushni) bir oktava yuqoriga ko'chirish.
2. Interval cho'qqisini (yuqori tovushni) bir oktava pastga ko'chirish. V/ Mazkur intervalning aylanishi natijasida yangi interval hosil bo'ladi:

Qoida bo'yicha, barcha sof intervallar — sofga, kichik intervallar — kattaga, katta intervallar — kichikka, orttirilgan intervallar — kamaytirilganga, kamaytirilganlari — orttirilgan-ga, ikki marta orttirilgan intervallar — ikki marta kamaytirilgan intervallarga aylanadilar va aksincha. V/Orttirilgan ok-tavagina aylanishdan mustasnodir. Agarda biror interval va uning aylanmasini birlashtirsak, natijada oktava hosil bo'la-p.i. Shuning uchun bir-biriga aylanadigan intervallar sifat miq-dorining hajmi hamma vaqt olti tonga teng bo'ladi.

Berilgan biror tovushdan yuqoriga va pastga qarab seksta yoki septima intervali tuzishni yengillashtirish uchun intervallar aylanishi qoidasidan foydalanish tavsiya qilinadi. Berilgan biror intervalni yuqoriga tomon tuzish uchun asosiy tovushdan bir oktava yuqorida joylashgan tovush aniqlanadi, so'ngra undan pastga tomon berilgan interval aylanmasi sanaladi. Masalan, *fa* tovushidan yuqoriga tomon kichik seksta tuzish talab qilinsa:

Berilgan biror intervalni pastga tomon tuzish uchun asosiy tovushdan bir oktava pastda joylashgan tovush aniqlanadi, so'ngra, undan yuqoriga tomon berilgan interval aylanmasi sanaladi. Masalan, *do-diyez* tovushidan pastga tomon katta septima tuzish talab qilinsa:

Muzikada oddiy intervallardan tashqari, oralig'i oktavadan keng intervallar ham qo'llaniladi. Oralig'i bir oktavadan keng intervallarga tarkibli intervallar deyiladi. Tarkibli intervallar oddiy intervallarni oktavaga qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi Shunday qilib, oktava orqali tuzilgan avvalgidek intervallar" hosil bo'ladi va ular tuzilishlariga qarab turlicha nomlanadilar.

Har bir tarkibli interval uning tarkibidagi pog'onalar so-niga qarab mustaqil nomlar bilan ataladi:

nona-9, oktava orqali tuzilgan sekunda *detsima-YU*, oktava orqali tuzilgan tersiya *undetsima-11*, oktava orqali tuzilgan kvarta *duodetsima-12*, oktava orqali tuzilgan kvinta *tersdetsimaL'*, oktava orqali tuzilgan seksta *kvartdetsima-14*, oktava orqali tuzilgan septima *kvintdetsima-15*, oktava orqali tuzilgan oktava tarkibli intervallarning sifat miqdorini belgilash uchun I intervallarda ishlatiladigan sof, katta, kichik, orttiril-yegan so'zlar so'llaniladi.

Tarkibli intervallar aylanganda, undagya tovushlarning ko‘chish uslubi |GI tvrtibda bo‘lishi mumkin: a) tarkibli interval tovushlaridan biror-ng (pastki topushning yuqoriga yoki yuqorigi tovushning pastga) ikki ok-ko‘chishi; S) tarkibli intervalning har ikkala tovushining qarama-qar-Rndiling) tomonga bir oktavaga ko‘chishi. Masalan:

Tarkibli intervallar sof kvintdetsima (qo‘sh oktava) dan ham keng oratuzilnshi mumkin. Bunday hollarda oddiy intervallar nomi saqlanib, Rki uch oktava orqali tuzilgan» degan so‘zlar qo‘shib ishlatiladi. Masalan 3 ikki oktava orqali;

Tarkibli intervallarning boshqa bir tarkibli intervallarga aylanish ,rn ham bo‘ladi. Bunda tovushlar ikki oktavaga ko‘chadilar va qarama-qarshi yo‘naladilar.

OHANGDOSH (KONSONANS) VA NOOHANGDOSH (DISSONANS) INTERVALLAR

Diatonik shakldagi garmonik intervallar ohangdosh va noohangdosh intervallarga bo‘linadi.

Muzikada ohangdoshlik (konsonans) deb bir-biri bilan uyg‘un-lashgan, ohangdosh bo‘lib eshitilgan tovushlar yangrashi (yig‘indi-si)ga aytiladi.

Noohangdoshlik (dissonans) deb bir-biri bilan uyg‘unlashma-gan, quloqqa keskin eshitiladigan tovushlarga aytiladi.

Ohangdosh intervallarga quyidagilar kiradi:

a) sof prima

sof oktava nihoyat mukammal ohangdoshlar

b) sof kvarta 1 mukammal ohangdoshlar sof kvinta

v) kichik tersiya katta tersiya kichik seksta katta seksta

Noohangdosh intervallarga q.uyidagilar kiradi: kichik sekunda, katta sekunda, orttirilgan kvarta,

kamaytirilgan kvinta,

kichik septima, katta septima. Qoida bo‘yicha ohangdosh intervallar ohangdosh intervallarga, noohangdosh intervallar esa noohangdosh intervallarga aylanadilar.

Garmonik intervallarga misollar:

nomukammal ohangdoshlar

LAD V A TONALLIKLAR TURG‘UN TOVUSHLAR. TONIKA. NOTURG‘UN TOVUSHLAR VA ULARNING YECHILISHI. LAD

I/ Muzika asarlarini eshitganda yoki ijro, etganda ulardan hosil bo‘lgan tovushlarning o‘zaro munosabatda ekanligini ko‘ramiz. Bu hol birinchi navbatda, muzikaning, xususan kuyning rivojla-nish protsessida o‘z ifodasini topadi. Bunda ayrim tovushlar barcha tovushlar orasidan ajralib, tayanch tovushlar xarakteriga **ega** bo‘ladi- Odatda, kuy mana shu tayanch tovushlarning birortasida tugallanadi.

Masalan:

VBy misolning birinchi qismida tayanch tovushlar *sol* bilan *do* bo‘lib, ikkinchi qismida esa *mi* bilan *do* tovushlaridir.

Tayanch tovushlar turg'un tovushlar deb yuritiladi. Tayanch tovushlarning ana shunday deb atalishi ularning xarakteriga mosdir, chunki tayanch tovushda tugallangan kuy eshituvchida tinchlik va turg'unlik taassurotini qoldiradi.

Odatda, turg'un tovushlardan birortasi boshqalariga qaraganda keskin ajralib turadi va asosiy tayanch rolini bajaradi. Bu xildagi turg'un tovush tonika deb ataladi.

Yuqorida keltirilgan misolda *do* tovushi tonika hisoblanadi. Kuyning umumiy yo'nalishini shakllantirishda ishtirok etadigan boshqa tovushlar turg'un tovushlarga nisbatan ancha kuchsiz bo'lib eshitiladi, shuning uchun ularga noturg'un tovushlar deyiladi. Noturg'un tovushlar turg'un tovushlarga intiladilar (tortiladi-lar). Turg'un tovushlarga tomon tortilish holati sekunda orali-g'idagi noturg'un tovushlar uchun juda xarakterlidir.

Bu misolda ko'rsatilgan *sol*, *mi* va *do* (ular tagiga > belgi qo'yilgan) turg'un tayanch tovushlarga kiradi, noturg'un tovushlar esa bu tovushlarga quyidagi tartibda tortiladi: *sol* tovushiga *lya*, *mi* tovushiga *fa* va *do* tovushiga *re* tortiladi.

Do tovushi mazkur kuyning tonikasi hisoblanadi.

Noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga o'tishi tovushlar yechilishi deb ataladi. 122-misolda *re* tovushi *do* tovushiga (toni-kaga) o'tadi va natijada noturg'un tovush turg'un tovushga aylanadi.

Yuqorida aytilganlardan muzikada tovushlar balandligining o'zaro munosabati ma'lum bir sistemaga bo'ysundirilgan ekan degan xulosaga kelish mumkin.

Turg'un va noturg'un tovushlarning o'zaro munosabati sistemasi *lad* deyiladi.

Biror kuy yoki muzikaviy asar ma'lum bir ladga asoslanadi.

Lad muzika tovushlari balandlik munosabatini tartibga kel-tiradi va muzikaning boshqa ifoda vositalari bilan birga uning mazmuniga moye keladigan ma'lum bir xususiyatini yaratib beradi.

MAJOR LADI. TABIIY (NATURAL) MAJOR GAMMASI. MAJOR LADI POG'ONALARI. MAJOR LADI POG'ONALARINING NOMI, YOZILISHI VA XUSUSIYATLARI

Xalq muzikasida xilma-xil ladlar uchraydi. Klassik muzikada (rus va chet el klassik muzikasida) xalq ijodi va, demak, unga xos bo'lgan xilma-xil ladlar ma'lum darajada o'z aksini topgan. Lekin asosiy o'rinni major bilan minor ladi egallagan. Turg'un tovushlari (birin-ketin yoki bir yo'la eshitilishda) uchta tovushdan iborat bo'lib, major yoki k a t t a uchtovushlik-ni — akkordni¹ hosil qilgan ladga major ladi deyiladi. Tovushlar uchtovushlikda, tersiya bo'yicha joylashadilar: katta tersiya — pastki va o'rta tovushlar orasida, kichik tersiya esa o'rta va yuqori tovushlar orasida bo'ladi.

Uchtovushlikning eng past va eng yuqori tovushlari oralig'ida sof kvinta intervali hosil bo'ladi.

AKKORDLAR
AKKORD. UCHTOVUSHLIK. UCHTOVUSHLIKLAR
KO'RINISHI. OHANGDOSH VA NOOHANGDOSH
UCHTOVUSHLIKLAR. UCHTOVUSHLIKLAR AILANISHI

Tersiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan hamda bir vaqtda qo'shib eshitilgan uch va undan ortiq tovushlarga akkord deyiladi.

Uchta tovushdan iborat tersiya bo'yicha joylashgan akkord u tovushlik deyiladi.

Akkord pastki tovushdan yuqoriga qarab tuziladi.

Uchtovushlikning saysi holatda bo'lishi shu uchtovushlik tarki-biga kiradigan tersiyalarning joylashuv tartibi va holatiga bog'liqdir.

Katta va kichik tersiyalardan uchtovushlikning to'rt xili hosil bo'ladi.

1. Major yoki katta uchtovushlik kat. 3 va kich. 3 dan tuziladi va ikki chetidagi tovushlar sof 5 intervalidan iborat bo'ladi.

2. Minor yoki kichik uchtovushlik kich. 3 va kat. 3 dan tuziladi, ikki chetidagi tovushlar sof 5 intervalidan iborat bo'ladi.

3. Orttirilgan uchtovushlik ikkita kat. 3 dan tuziladi. Ikki chetidagi tovushlar oralig'i ort. 5 dan iborat bo'ladi.

4. Kamaytirilgan uchtovushlik ikkita kich. 3 dan tuziladi. Ikki chetidagi tovushlar oralig'i kam. 5 dan iborat bo'ladi.

Major va minor uchtovushligidan hosil bo'lgan barcha intervallar ohangdosh intervallarga kiradi. Orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklardan tuzilgan intervallar esa noohangdosh intervallarga kiradi. Ular ort. 5 va kam. 5 dan iborat.

Demak, major va minor uchtovushliklar ohangdosh bo'ladi, orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklar esa noohangdosh bo'ladi.

Akkord tovushlari tersiya bo'yicha joylashgan bo'lsa, unga akkordning asosiy ko'rinishi deyiladi.

XALQ MUZIKASI LADLARI
UMUMIY TUSHUNCHALAR

Beshinchi bobning 33- § ida xalq muzikasida va shuningdek, klassik muzikada major bilan minordan tashqari, yana boshqa xildagi ladlarning ham qo'llanilishi to'g'risida aytib o'tilgan edi.

Bu bobda ayrim xalq muzikasi ladlari, xususan ko'p millatli mamlakatimiz xalqlari qo'shiq ijodida uchraydiganlari ustida to'xtalib o'tamiz.

San'atning boshqa sohalari singari muzika ham ko'p asrlar davomida rivojlanish jarayonida har xil xalqlarda turlicha shakllangan. Xalq muzika ijodida uchraydigan ladlar ham jahon muzika amaliyotida qabul qilingan va mustahkam o'rin egallagan ladlar ham sekin-asta yuzaga kelgan. Xalq qo'shiqlarida atigi ikkita yoki uchta tovushdan tuzilgan misollar uchraydi.

XALQ MUZIKASINING YETTI POG'ONALI DIATONIK
LADLARI. PENTATONIKA

Xalq muzikasida ketma-ket kelgan va xilma-xil diatonik po-g'onalardan tuzilgan yetti pog'onali ladlar uchraydi. Lad pog'ona-larining birin-ketin kelishi

tovushqatorda katta va kichik sekundalar joylashishiga bog'liqdir. Xalq muzikasi ladlari tabiiy major va minordan (va bir-birlaridan) yuqoridagi sabab-larga ko'ra F^arq qiladilar, lekin tonikalari major yoki minor uchtovushligi bo'lganligi uchun ularga major va minorning muhim turlari sifatida qaraladi.

Ikkita major ladi yetti pog'onali xalq muzikasi ladlariga yondosh ladlardan hisoblanadi: bular VII pog'onasi pasaytirilgan va IV pog'onasi ko'tarilgan majordir. Yana ikkita minor ladi ham, yondosh ladga kiradi, bular IV pog'onasi ko'tarilgan va II pog'onasi pasaytirilgan minordir.¹

Xalq qo'shiqlarida VII pog'onasi pasaytirilgan tabiiy major ladi boshqa ladlarga nisbatan ko'proq uchraydi.

VII pog'onaning pasaytirilishi uning I pog'onaga qarab torti-lish kuchini ancha susaytiradi va bu bilan VII pog'ona pasaytirilgan tabiiy minor intonatsion xususiyatini eslatadi.

Unda I pog'onadan tuzilgan kichik septima hosil bo'ladi.

Masalan:

TONALLIKLAR POG'ONADOSHLIGI. XROMATIZM. TONALLIKLAR POG'ONADOSHLIGI

Barcha major va minor tonalliklari o'zaro garmonik tengdosh tonalliklar gruppasini tashkil qiladi.

Tonika uchtovushliklari tabiiy va garmonik ko'rinishda beril-gan tonalliklarning pog'onalaridan[^] hosil bo'lgan tonalliklar pog'onadosh tonalliklar deyiladi.

Muzika asarida ilk tonallik bosh tonallik deyiladi, muzika rivojlanishi jarayonida¹ uni almashtiruvchi tonallik esa yondosh tonallik deyiladi.

Har bir tonallik oltitadan pog'onadosh tonallikka ega.

Masalan:

Do majorga quyidagi tonalliklar pog'onadosh buladi:

fa major IV pog'ona! asosiy pog'onalar *sol major* V pog'ona] tonalligi

lya minor VI pog'ona — asosiy pog'ona tonallikka parallel

re minor II pog'ona 1 ^{iy pog'ona} tonalliklarsha parallel

mi minor III pog'ona J

fa minor IV (garm.) pog'ona—minor subdominanta tonalligi (20 a misolga qarang).

Lya minorga quyidagi tonalliklar pog'onadosh bo'ladi:

re minor IV pog'ona! ^{pog'onalar TONalligi}

mi minor V pog'ona

do major III pog'ona— asosiy tonallikka parallel

fa major VI pog'ona 1 ^{tonalliklariga parallel}

sol major VII pog'ona J

mi major V (garm.) pog'ona — major dominantasi tonalligi

(206 b misolga qarang).

Yuqorida keltirilgan misollarga asosan tabiiy va garmonik *do* major va *lya* minor pogʻonalarida tuzilgan major va minor uchtovushliklari yuqorida koʻrsatilgan pogʻonadosh tonalliklarning har biriga tonika boʻla oladi.

XROMATIZM. ALTERATSIYA

Diatonik ladlarning asosiy pogʻonalarini koʻtarish yoki pasaytirish yoʻli bilan oʻzgartirilishi xromatizm deyiladi. Mana shu xilda hosil boʻlgan yangi xromatik pogona hosil a pogʻona boʻladi va shuning uchun yonida alteratsiya belgisi qoʻyilgan asosiy pogʻona sifatida yoziladi.

Ladning istalgan pogʻonasi xromatik tarzda oʻzgartirilishi mumkin. Major va minorning xilma-xil koʻrinishlarini oʻrgangan-da, xromatik elementlar bilan koʻrib oʻtgan edik. Majorda IV pogonaning pasaytirilishi, minorda VI va VII pogʻonalarining koʻtarilishi — bu pogʻonalarining xromatik oʻzgarishiga kiradi. Shuning uchun bu oʻzgarishni ifodalovchi belgilar kalit yoniga emas, balki oʻzgaruvchi nota yoniga qoʻyiladi.

Koʻrsatilgan hollarda xromatik tarzda asosiy pogʻonalar mus-taqil oʻzgartirildi va buning natijasida mustaqil koʻrinishli ladlar hosil boʻladi.

Bundan tashqari, xromatizm tasodifiy, oʻtkinchi, yaʼni torti-lishni keskinlashtiruvchi biror pogʻonani vaqtincha oʻzgartiruvchi sifatida xam uchrashi mumkin.

Noturgʻun tovushlarning turgʻun tovushlarga tortilishini keskinlashtiruvchi xromatik oʻzgarishlar muzika nazariyasida alteratsiya deyiladi.

Asosiy pogʻonadan katta sekunda oraligʻida turgan pogʻonalarining alteratsiya qilish (oʻzgartirish) mumkin.

Shunday qilib, majorda quyidagi oʻzgarishlar boʻladi; II pogʻona koʻtariladi va pasaytiriladi.

IV « »

VII pogʻona koʻtariladi Minorda esa:

II pogʻona pasaytiriladi, IV pogʻona koʻtariladi va pasaytiriladi,¹ VII pogʻona koʻtariladi. Melodik minorda koʻtarilgan VI pogʻona boshqacha xarakterda boʻladi. Bu pogʻona tovushqatorning pastga tomon tekis harakatlash tsnglashtiradi (beshinchi bobning 38-§ iga qarang).

Major va minorda alteratsiya sxemasi (245) va misol (246 a):

KUY

MUZIKA ASARIDA KUINING AHAMIYATI. XALQ MUZIKASI (QUSHIQLARI)NING KUILARI

Tovushlarning bir ovozli shaklda maʼlum lad va metr hamda ritm jihatdan uyushib kelishiga kuy deyiladi[^]

Muzikaviy mazmun joʻroiz, yakka kui'orqali ham ifodalanishi mumkin. Bir ovozli muzika asarlari tekstli (qoʻshiq) va teksiz (cholgʻu kuylari) holida boʻlishi mumkin. Tekstli kuy mazmuni ancha yorqin va tushunarli boʻladi. Bunga bir ovozli kuylar boʻlgan xalq qoʻshiqlari va raqslari misol boʻla oladi. Ularning

mazmuni xilma-xildir. Bunday asarlarda xalqning boshdan kechirgan-lari va orzuniyatlarini, hayoti aks ettirilgan.

Xalq muzika ijodida ikki ovozli va ko'p ovozli asarlar ham uchraydi. Lekin bunday asarlarda nechta ovoz (qo'shimcha ovoz) bo'lishidan qat'i nazar, asosiy kuy yo'nalmasi barcha tovushlarning qo'shib eshitilishidan tashkil topadi.

Ko'p millatli mamlakatimiz xalqlarining qo'shiqlari kuyga juda ham boydir. Qo'shiqlarning kuy tarkibi ularning xilma-xil mazmuniga nihoyat mosdir. Bundan tashqari, turli xalqlar-ning qo'shiqlari ham, raqs kuylari ham o'zlariga xos kuy tuzilma-lariga ega bo'lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xalq qo'shig'ida o'ziga xos milliy kolorit bo'ladi.